

Tasdiqlayman
Bosh direktor V.V. G.Muxuddinov

2022 yil “2-” — kunidagi
N^o 15 sonli buyruqqa 10-ilova



“YO'L-LOYIHA BYUROSI” MChJ tomonidan avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruktsiya qilish va to'la ta'mirlash ob'ektlarini loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish ishlarini bajarish yuzasidan tovarlar, xizmatlar va ishlar yuzasidan eng yaxshi takliflarni tanlash, tanlov va tenderlar o'tkazish bo'yicha tanlov komissiyasi ish

REGLAMENTI

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur reglament O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi O'RQ-684-sonli “Davlat xaridlari to'g'risida” gi qonuni va amaldagi me'yoriy hujjatlarga asosan ishlab chiqilgan bo'lib, tanlov komissiyasining tanlovlarni o'tkazish va uni tashkillashtirish tartibini belgilaydi.

2. Tanlov O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 dekabrdagi “O'zbekiston Respublikasi yo'l xo'jaligi tizimini chuqur isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida” PF-5890-sonli farmoni va hukumatning tegishli topshiriqlariga asosan o'tkaziladi.

3. Tanlov komissiyasi a'zolari 7 kishidan iborat bo'lib, komissiya a'zolarining 3/2 dan kam bo'lmagan qismi qatnashsa tanlov komissiyasi qabul qilgan qaror muvofiq deb hisoblanadi.

4. Takliflarni tanlovga e'lon berilgandan 5 ish kunidan so'ng, komissiya a'zolari ishtirokida ko'rib chiqiladi.

5. Tanlov komissiyasining har bir a'zosi tomonidan takliflar bo'yicha ovoz berish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar qat'iy ravishda maxfiy va oshkor etilishi mumkin emas.

6. Paketlarni komissiya vakillari tomonidan o'rganish va baholash Oferentlar yoki ularning vakillari ishtirokisiz elektron tarzda o'tkaziladi.

7. Agar tanlov g'olib tanlov hujjatlarida nazarda tutilgan shartlar asosida shartnomada tuzishdan bosh tortsa, unda takliflarni keyingi ball olgan ishtirokchi tanlov g'olib bo'ladi yoki tanlov yangidan o'tkaziladi.

8. Oferent tomonidan ilgari mazkur turdag'i ishlar o'z vaqtida bajarilmagan va sifatsiz ishlab chiqilgan bo'lsa, shartnomada majburiyatlarini asossiz ravishda buzganliklari, shuningdek pudratchilar tomonidan shikoyat bo'lgan taqdirda, Tanlov kommissiyasi oferentning taklifini rad etishga va paketni ochmasdan qaytarishga haqlidir.

9. Agar ishtirokchi ishlarni bajarish narxini buyurtmachining boshlang'ich narxidan **70%** dan kamini taklif qilsa, u tanlovnı keyingi bosqichda ishtirok etishdan chetlatiladi.

10. Tanlov ishtirokchilari tegishli litsenziyaga ega bo'lgan tashkilot va korxonalar bo'lishi lozim.

11.. Tanlovda ishtirok etish uchun ariza beruvchi mazkur reglament ilovasida belgilangan hujjatlarni taqdim etishi shart:

12. Hujjatlar (Texnik qism, taklif etilayotgan narx va ishlarni bajarish muddati) muhrlangan nusxalari elektron ravishda qabul qilinadi.

13. Baholashning asosiy mezonlari ishning qiymati va ishlarni bajarish muddati bo'ladi.

14. Tanlov natijalari asosida tuzilgan shartnomaning shartlari O'zbekiston Respublikasi hududida amal qiladigan Fuqarolik kodeksining umumiyligi tamoyillariga, “Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy asoslari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga va me'yoriy hujjatlarga muvofiq bo'lishi kerak.

15. Ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar qo'yilgan talablarga javob berishi kerak.

16. Tanlovda qayta tashkil etilayotgan yoki bankrotlik holatidagi tashkilotlar ishtirok etishi mumkin emas.

17. Oferentlar tomonidan taklif qilingan narxlar O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOVAR-XOM ASHYO BIRJASI “etender.uzex.uz” tizimi tomonidan avtomatik tarzda baholanadi.

II. Tanlov taklifiga kiritilgan hujjatlar.

18. Tanlov ishtirokchisi quyidagi ma'lumotlarni taqdim etadi:

Tanlov ishtirokchisining tashkiliy shakli to'g'risidagi ma'lumotlar, avtomobil yo'llari mutaxassisligi bo'yicha diplomga va ushbu sohada ish tajribasiga ega bo'lgan xodimlar ro'yxatini taqdim etish (to'liq formatdagi xodimlarni ishga qabul qilish buyrug'i, mexnat daftarchasining mygov.uz yoki mehnat.uz portali orqali olingan ko'chirma nusxalari, diplom nusxalari ilova qilingan holda).

19. Belgilangan shaklda berilgan tegishli toifadagi litsenziyani ilova qilgan holda tanlov ishtirokchisi to'g'risida umumiylar ma'lumotlar (1-ilova).

20. So'nggi uch yildagi tanlov ishtirokchisining moliyaviy holati to'g'risida hujjatlar (2-ilova).

21. So'nggi uch yil ichida tugatilgan va amalga oshirilayotgan loyihalar bo'yicha tanlov ishtirokchisining ish tajribasi, amalga oshirilgan ishlar bo'yicha tuzgan shartnomalari nusxalari va davlat ekspertiza xulosalari nusxalari bilan birga taqdim etilishi lozim (3-ilova jadval ko'rinishida).

22. Ob'ektni joyida o'rganganligi to'g'risida ma'lumotnomma. Vizual grafik materiallar (Ob'ektning rejasи, yo'lning umumiylar ko'rinishi, ob'ektning taxminiy qiymati va boshqalar) va tushuntirish xati (4-ilova).

23. Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishda foydalaniladigan jihozlar va texnikalarning ro'yxati; (5-ilova).

24. Direktordan, shuningdek, loyiha bosh muhandisidan (GIP) o'z vazifalarini bajarish bo'yicha kafolat xati.

25. Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun ishtirokchi taklif qilgan narx (6-ilova).

26. Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish muddati (7-ilova).

27. Byudjetdan qarzi yo'qligi to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim yetish (davlat soliq organlari tomonidan tasdiqlangan);

28. Tanlov ob'ekti qiymatining kamida 10 foizidan kam bo'lмаган miqdorda aylanma mablag'larning mavjudligi yoki ushbu mablag'larni taqdim yetish uchun bank kafolati (xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan tasdiqlangan guvohnoma);

III. Taklifni muhrlash va markalash.

29. Hujjatlar imzolangan va muhrlangan nusxalari elektron ravishda yuboriladi. Yuborilgan xar bir nusxalar korxona tomonidan imzolangan va muhrlangan bo'lishi shart

30. Takliflar va hujjatlar talab qilingan holatda taqdim etilmasa buyurtmachi tomonidan hujjatlar qabul qilinmaydi, va baholanmaydi yoki ko'rib chiqilmaydi.

IV. Komissiya ishini boshlash, tanlov takliflarini ochish va baholash.

31. Qoidaga muvofiq tanlov O'ZBEKISTON RESPUBLIKA TOVAR-XOM ASHYO BIRJASI "etender.uzex.uz" tizimida o'tkaziladi.

32. Oferentlar takliflari O'ZBYEKISTON RESPUBLIKA TOVAR-XOM ASHYO BIRJASI "etender.uzex.uz" tizimida ko'rib chiqiladi.

33. Tanlov komissiyasi ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqadi, ularning to'g'ri to'ldirilganligi, xujatlarning elektron nusxalari xaqiqiyligi, to'g'ri imzolanganligi va umumiylar holat bo'yicha takliflarni ko'rib chiqadi.

34. Tanlovga kiritilmagan yoki diskvalifikatsiya qilingan taklif ishtirokchilarini bayonnomada sababini ko'rsatgan holda Tanlovdan chetlatiladi yoki diskvalifikatsiya qilinadi.

V. Tanlov ishtirokchilarini baholash.

35. Tanlov g'olibini aniqlashda konkurs ishtirokchilar tomonidan to'ldirilgan va taqdim etilgan ilovalar tanlov komissiyasi o'rganib chiqiladi.

36. Tanlov komissiyasining kotibi ballar jadvalini to'ldiradi va komissiya azolari ushbu ballar bilan tanishib uni tasdiqlaydi(ERI bilan) (namuna 1-jadvalda keltirilgan).

37. Zarur bo'lganda, Tanlov komissiyasi komissiya tarkibidan, "YO'L-LOYIHA BYUROSI" MChJ bo'limlaridan yoki tegishli boshqa mutaxassislarini jaib qilgan holda hujjatlarni to'liq o'rganib chiqish va xulosa kiritish uchun baholash guruhi tuzishga haqlidir.

1-jadval

ob'ektini loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun
tanlov takliflarini baholash varag'i

№ №	Parametrlar nomi	№№ Ilovalar	Maksi- mal ball	Oferentlar nomi			
				№1	№2	№3	№4
1	Tanlov ishtirokchisi to'g'risida umumiylar ma'lumotlar (litsenziyalarini ilova qilingan holda)	1 -ilova	10				
2	Tanlov ishtirokchisining moliyaviy holati	2-ilova	20				
3	So'nggi uch yil davomida bajargan ish tajribasi	3-ilova	23				
4	Ob'ektni joyida o'rganganligi to'g'risida ma'lumot	4-ilova	10				
5	Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishda foydalilaniladigan jihozlar va texnikalarning ro'yxati	5-ilova	12				
	Jami		75				

Tanlov komissiyasi a'zosi _____ « ____ » 2022 y.
 (F.I.Sh.) (imzo) (sana)

VI. Tender takliflarini baholash mezonlari.

38. Tanlov hujjatida har bir parametr bo'yicha majburiy tartibda baholash mezonlari kiritilishi kerak.

Baholash mezonlari 2-jadvalda keltirilgan

Avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruktsiya qilish va to'la ta'mirlash ob'ektlarini loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun tanlov takliflarini baholash mezonlari.

N _o N _o	Ilovalarning baholash parametrlari nomi.	Ballar miq-dori
I. Tanlov ishtirokchisi to'g'risida umumiy ma'lumotlar. 1-ilova (10 ball)		
1.	5 kishidan kam bo'limgan malakali loyihami va mutaxassislarning mavjudligi (buyruqlar, diplomlar nusxalari bilan birga)	4
2.	Avtomobil yo'llari loyihalash bo'yicha 1 ta loyiha bosh muxandisi (LBM) ning mavjudligi (buyruqlar, diplomlar nusxalari bilan birga)	4
3.	Avtomobil yo'llari loyihalash bo'yicha 4 ta muxandis texnik xodimlar mavjudligi (buyruqlar, diplomlar nusxalari bilan birga)	2
II. Ishtirokchining moliyaviy holati. 2-ilova (20 ball)		
4.	Byudjet oldida qarzdorligi yo'qligi to'g'risida ma'lumotnomma (tegishli davlat soliq tashkilotlari tomonidan tasdiqlangan bo'lishi lozim)	5
5.	Tashkilotning tegishli davri uchun xodimlarning o'rtacha yillik soni va ish haqi jamg'armasi to'g'risida ma'lumotnomma (tegishli davlat soliq tashkilotlari tomonidan tasdiqlangan bo'lishi lozim)	3
6.	Tanlov ishtirokchisining hisob raqamida buyurtmachi tomonidan qo'yilgan ob'ektning boshlang'ich qiymatini 10% dan kam bo'limgan mablag' bo'lishi lozim (tegishli bank tomonidan berilgan ma'lumotnomma yoki kafolat)	3
7.	Asosiy vositalarning qoldiq qiymati to'g'risidagi ma'lumotlar	2
8.	kreditor qarzdorlikni mayjud emasligi	5
9.	O'tgan yilda 50 mln.so'm foydasi (soliq to'langunga qadar) mavjudligi	2
III. So'nggi uch yil davomida bajargan ish tajribasi. 3-ilova (23 ball)		
10.	Uch yilda tanlov predmetiga o'xshash ish hajmi jami 100 mln. so'mdan ko'p bo'lishi	3
11.	Oxirgi uch yil tanlov predmetiga o'xshash ishlarni o'z kuchi bilan bajarish: yiliga Buyurtmachi boshlang'ich narxning 20%) va undan ko'p	6
12.	Tanlovdagiga o'xshash profil bo'yicha oxirgi 3 yilda o'z kuchi bilan 3 tadan kam bo'limgan ishchi loyiha, ishchi hujjat va TIA (TEO) hujjatlarini ishlab chiqganligi. (ekspertiza xulosasi bilan tasdiqlanadi)	10
13.	Tanlovga qo'yilgan ob'ekt joylashgan hududga tanlov ishtirokchisi (filiali) joylashgan yuridik manzilini yaqinligi (mualliflik nazorati olib borish va qurilish jarayonidagi muammolarni joyida xal qilish uchun)	4
IV. Ob'ektni o'rganganligi to'g'risida ma'lumot. 4-ilova (10 ball)		
14.	Ob'ektni borib o'rganilganda (tushuntirish xati, ob'ektning taxminiy qiymati, ob'ektning rejasi, yo'lining umumiy ko'rinishi, materiallarni olish manbalari)	10
V. Loyerha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishda foydalilaniladigan jihozlar va texnikalarning ro'yxati. 5-ilova (12 ball)		
15.	Jihozlar va texnikalarning to'liq bo'lgan holatda	12

Izoh:

- 1 va 2-jadvallar tanlov takliflarini baholash mezonining tavsiyaviy namunasi, har bir ob'ektning murakkabligi va ish hajmiga qarab baholash mezonlariga xarid komissiyasi o'zgartirish kiritilishi mumkin.
- Oferent baholash yakunlariga ko'ra 55 balldan kam ball to'plasa (kelgusida – o'tish ballari), tanlov komissiyasi a'zolarining ovozi qarshi hisoblanib, texnik jihatdan malakasi yetarli emas deb hisoblanadi.
- Ishtirokhilarни takliflari quyidagi hollarda ko'rilmaydi va tanlovdan chetlatiladi (diskvalifitsiya qilinadi):
 - agar taklif tanlov komissiyasining ovoz berish natijalariga ko'ra texnik malakasi yetarli emas deb topilsa.
 - 4. - 2, 3 -ilovalardan biri yoki barchasi taqdim etilmagan bo'lsa.
- Yuborilgan xar bir nusxalar korxonalar tomonidan imzolangan va muhrlangan bo'lmasa
 - agar ishtirokchining taqdim etgan narxi buyurtmachining boshlang'ich narxidan yuqori bo'lsa.
 - Xarid komissiyasi tomonidan oferentlar takliflari baholanayotganda, ko'rsatkichlarga qarab ballar interpolyatsiya yo'li bilan amalgalash oshiriladi.

39. Oferentlarining takliflari quyida ko'rsatilgan tender takliflarining moliyaviy baholash mezonlariga binoan baholanadi.